

MIRZO ULUG‘BEK ADABIYOT HOMIYSI

Masrur Raximjonov

*Alfraganus universiteti katta o‘qituvchisi
filoloji fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqolada Mirzo Ulug‘bek davrida Movarounnahr va Samarqand adabiy muhitining rivoji, hukmdorning badiiy adabiyot va she‘riyatga bo‘lgan qiziqishi hamda davr shoirlari bilan munosabati yoritilgan. Shuningdek, Ulug‘bekning forsiy va turkiy adabiyot namoyandalari ijodidan yaxshi xabardor bo‘lgani, uning adabiyot bilimdoni va she‘riyat muxlisi sifatidagi faoliyati tarixiy-adabiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Samarqand adabiy muhiti, Movarounnahr, turkiy adabiyot, forsiy adabiyot, she‘riyat, shoirlar.

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand va butun Movarounnahrda tabiiy fanlar barobarida badiiy adabiyot ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Manbalarda Ulug‘bekning adiblar hamda badiiy adabiyotga munosabati haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Faxriy Heraviyning “Ravzat us-salotin” va Abu Toxirxojaning “Samariya” asarlarida Ulug‘bek ko‘prok astronomiya ilmi bilan shug‘ullansa-da, gohida nazmga mayl qilgani ta’kidlanib, uning qalamiga mansub quyidagi forsiy bayt keltiriladi:

*Harchand mulki xusn ba zeri nigini tust,
Mazmuni:*

Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust.

Go‘zallik mulki harchand qo‘l ostingda bo‘lsa-da,

Sho‘xlik qilmagilki, yomonlarning ko‘zi senga tikilgan [1].

Mirzo Ulug‘bek nafaqat zamondosh adiblar, balki o‘z davridan bir necha asr oldin yashab o‘tgan ko‘plab shoirlar ijodidan ham chuqur xabardor bo‘lib, she‘riyatning katta muhlisi va bilimdoni sifatida nom qozongan. Davlatshoh Samarqandiyning 1486 yilda yozib tugatilgan “Tazkirat ush-Shuaro” asarida bu haqda bir qancha ma’lumotlar mavjud. Davlatshoh Ozarbayjonlik yirik shoir Afzaliddin Hoqoniy (1120-1199)ning ustoz Falakiy

Shirvoniy (1107-1146) haqida yozar ekan, jumladan, shunday deydi:

“Falakiyning devonini podshohi mag‘fur Ulug‘bek Ko‘ragonning huzuriga eltdilar. Mutolaa qildi, pisand etti va dediki, ajab taxallusi bor turur” [2]. Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, shirvonlik shoir falakiyotga qiziqib, ilmi nujum bilan shug‘ullangan va Falakiy taxallusini tanlaganining sababi ham shu bo‘lgan.

Davlatshoh XII-XIII asrlarda Eronda yashab o‘tgan ota-o‘g‘il shoirlar: Jamoliddin va Kamoliddin Isfahoniylar haqida shunday yozadi: “Malik ul-fuzalo Jamoliddin Muhammad Abdurazzoq Isfaxoniy Isfaxonning akobir va ulamolaridin turur. Shoiri xushgo‘y erdi, joxu martaba va qabuli tamomi bor erdi va Kamoliddin Ismoil aning o‘g‘li turur. Sultoni sayd Ulug‘bek Ko‘ragon Jamoliddin Muhammadning suxanini Kamoliddin Ismoilning suxaniga tarjix qilur erdi va borxo aytur erdi: “Manga ajab ko‘rinurkim, bovujudi otaning suxani pokizarok va shoironaroq turur, o‘g‘ulning suxani nechuk shuxrat topib turur”. Ulug‘bekning ushbu fikrini bayon qilgan Davlatshoh Samarqandiy asarining ayni shu sahifasida unga e‘tiroz ham bildiradi: “Ammo bu e‘tiqodi mukobara va da‘voyi bedadil turur, charokim Kamolning suxani bagoyat noziktar turur va zoxiri oson, haqiqati mashaqqat turur. Ammo podshohlarning suxaniga irod va ishkol tegurmak avomning haddi ermastururkim, kalom al-muluk, muluk al-kalom” [2].

Temuriylar xonadonida “shoxnomaxonlik”, “hamsaxonlik” oilaviy bir an‘anaga aylangani manbalardan yaxshi ma‘lum. Ulug‘bekning ukasi Boysungur Mirzo

“Shoxnoma”ning turli nusxalarini to‘plab, hozirgi til bilan aytganda ilmiy-tanqidiy matnini tuzdirgan bo‘lsa, Faxriddin Ali Koshifiyning “Latoif at-tavoif” asarida keltirilishicha, Ulug‘bek Mirzo majlislarida ham “Shoxnoma” o‘qilib, uning kiyin joylarining mazmun-ma‘nosi muhokama etilgan. Tabiiyki, shaxzodalar o‘rtasida ham adabiyotga doir baxs va tortishuvlar bo‘lib turgan.

Demak, ulug‘ ajdodlarimiz haqidagi nodir ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan mo‘tabar manbalarni tadqiq va tarjima qilish ishlariga halollik va mas‘uliyat bilan yondashmogimiz zarur.

Mirzo Ulug‘bek boshqa o‘lkalarga safarlari paytida ham adiblar va ularning asarlari haqidagi xabarlariga qiziqish bilan qaragan va uning bu xislatini bilgan zamondoshlari sovg‘a tariqasida badiiy kitoblar taqdim etishgan. Hirotda yashab ijod

qilgan Davlatshox shu tarzda Ulug‘bek qadrlagan “Nigoriston” asari Xurosonda kamyob bo‘lsa-da, bir nusxasi o‘zida borligini anglatib, undan ikkita hikoyatni “Tazkirat ush-shuaro”da keltiradi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hazinasida “Nigoriston” asarining bir necha qo‘lyozma nusxalari mavjud.

Mirzo Ulug‘bek zamonida Movarounnaxr va Xurosonda badiiy adabiyot asosan ikki tilda - forsiy va turkiy tillarda taraqqiy etgan. Mir Qosim Anvor, Xoja Ismatulloh Buxoriy, Bisotiy Samarqandiy, Xayoliy Buxoriy kabi shoirlar fors tilida, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Harimiy Qalandar kabi shoirlar esa ko‘prok turkiy tilda ijod qilishgan va ularning merosidan muayyan qismi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ulug‘bek o‘z davri shoirlari asarlarini yaxshi bilgan va ulardan ko‘pchiligi bilan bevosita munosabatda bo‘lgan. Davrning ustoz shoirlaridan biri Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Ismatulloh Buxoriy “Devon” ining bir necha nusxasi mavjud va ular orasida nisbatan to‘lig‘i 1435-raqamli qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma 193 varaq bo‘lib, uning salmoqli qismi, ya’ni 100 varaqdan ortiqrog‘i qasidalaridan iborat. Xalil Sulton madxida o‘ndan ortiq, Shoxrux, Boysungur va Ibroxim Sultonlar madxida bittadan qasida bor. Ulug‘bekka bag‘ishlangan 6 ta qasida bo‘lib, bittasi arabcha, qolgani fors tilidadir. Janr talabiga ko‘ra shoir mamduhni mubolag‘ali tarzda ta’rif-tavsif qiladi. Boz ustiga, uslubi murakkab qasidalarim shikasta xatida ko‘rilgan. Shunga qaramay, ular sinchiklab tadqiq etilsa, Ulug‘bek shaxsiyatiga doir yangi ma’lumotlar topilishi mumkin.

Mirzo Ulug‘bekning laqabi yo unvoni ba’zi manbalarda “Mag‘isuddin” tarzida keltirilsa, zamondosh muarrix Muiniddin Natanziy “G‘iyosiddin Ulug‘bek bahodir” [5] deb yozadi. Ismatulloh Buxoriy qasidalarida esa “Zahiriddin Ulug‘bek” deb yozilgan.

Badaxshiy taxallusli yana bir shoirning tavsifi quyidagicha: “Mavlono Badaxshiy fuzaloning jumlasidin turur, Samarqand shahrida Ulug‘bek Ko‘ragonning ayyomi davlatida anga suxanvarlikda oliy martaba bor erdi va ul zam onning shuarolarining saromadi erdi va sultoni mazkur va zamonning akobirlari ani suxanvarlikda musallam tutar erdilar va podshohi mazkurning madhida anga pokiza qasidalar bor turur va aning devoni ul diyorda mashxur turur” [1].

Davlatshox Samarqandiyning bu ma’lumotini Alisher Navoiy ham tasdiqlaydi: “Mavlono Badaxshiy fozil kishi ermish. Ulug‘bek Mirzo zamonida Samarqandda

shuaro ani xush go'yiliq'a musallam tutubdurlar. Va Mirzoning dagi ko'p iltifoti bor ermish" [1].

Alisher Navoiy Ulug'bek bilan munosabatda bo'lgan yana bir shoir haqida shunday yozadi: "Mavlono Muhammad Olim Samarqand ulamosidin. Ulug'bek Mirzo bila hamsabaq va musohib erdi. Ammo bag'oyat daler va sho'xtab' va xiyra kishi erdi. Baxsda ko'p go'stoxona so'zlar va javoblar aytur erdi. Saltanati azim-ush-sho'niy tahammul qila olmadi. Samarqanddin anga ixroj xukmi bo'lub Hiriya keldi va munda mavlononing maqdamin g'animat tutdilar va sokin bo'ldi" [1] .

"Majolis un-nafois"ning ikkinchi majlisida, ya'ni Alisher Navoiy yoshlik paytlarida muloqot qilgan adiblar qatorida quyidagi samarqandlik shoirlar nomi zikr qilinadi:

"Mavlono Mir Qarshiy - Samarqandda bo'lur erdi va bozorda saxxoflik do'koni bor erdi, zurafo anda jam' bo'lurlar erdi va mavlono o'zin ul xaylga ustod tutar erdi.

Mavlono Javxariy ham Samarqandligdur, sobunxona mushrifi erdi, ham sobunxona eshigida ko'chaning o'rtasida o'zi uchun xujragina yasab erdi. Aruz bilur erdi va "Siyar un-nabi" nazm kilib erdi.

Mavlono Xovariy ham Samarqandligdur va darzigar (tikuvchi)likka mansub erdi.

Badixani ravon aytur erdi va tab'i xiyli sho'x erdi.

Mavlono Halvoiy ham Samarqandligdur. Shukufta tab'liq, yaxshi chiroylik yigit erdi. Shabob (yoshlik) ayyomida favt bo'ldi. Umri qisqa uchun so'zining shuxrati ham ozdur" [1].

Yuqoridagi shoirlardan ba'zilarining ijodiy faoliyati Mirzo Ulug'bek davrida boshlanganini taxmin qilish mumkin.

Nomlari "Majolis un-nafois"ning ikkinchi majlisida zikr kilingan Samarqanddan yetishib chiqqan ba'zi shoirlar turkiy tilda ijod qilishgan:

"Harimiy Qalandar - Samarqand viloyatidin erdi. Tolibi ilmligi ham bor erdi. Bu turkcha matla' aningdurkim:

Necha yig'lay sham'dek xajringda, yorim, kechalar,

Ox kim kuydirdi dog'i intizorim kechalar" [1].

"Mirzo Hoji So'g'diy ham samarqandligdur va ul mulkning odamizodalaridindur. Agarchi ba'zi mahalda g'arib nimalar ta'bidin bosh urar erdi. Bu baytda xili so'z rangi

va chosh nisi borkim:

O'xshatti komatingga sanavbarni bog'bon,

Bechora bilmas ermish alifdin tayogni.

Bugina masalni yaxshigina bog'lag'on uchun umid ulkim, Tangri taolo anga rahmat qilmish bo'lgay. Qabri ham o'z mulkidadir.

Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar" [1].

Shuningdek, Alisher Navoiy boshqa viloyatlarga mansub bo'lishsa-da, hayoti va faoliyatlari qisman Ulug'bek davriga to'g'ri keladigan Lutfiy, Yaqiniy, Atoiy, Kamoliy, Latifiy kabi turkiy tilda ijod qilgan shoirlar hakida ma'lumot beradi. Bular orasida eng yirik shoir, shubhasiz, Navoiy "Malik ul-kalom" deya ulug'lagan mavlono Lutfiy edi. Afsuski, Lutfiy merosi bizgacha to'lig'icha yetib kelmagan. Ayniqsa, uning turkiy tildagi nazmiy "Zafarnoma"si saqlanib qolmagani achinarlidir. Mazkur asarda temuriy shahzodalar, jumladan, Ulug'bekga bag'ishlangan satrlar bo'lganini katta ishonch bilan taxmin qilish mumkin. Shunga qaramay, Lutfiy devonidagi bitta bayt orqali biz uning Ulug'bek bilan munosabati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lamiz:

Ulug'bekxon bilur Lutfiy kamolin,

Ki rangin she'ri Salmondin qolishmas [6].

Lutfiy o'zini mashxur fors shoiri Salmon Sovaniyga tenglashtirgan bu faxriya bayt bir tarafdin Ulug'bek Lutfiy ijodini yaxshi bilganidan dalolat bersa, ikkinchi tarafdin zamondosh shoirlar Ulug'bekning adabiyot bilimdoni ekanligini e'tirof qilib, uning bu sohadagi fikr-mulohazalarini qadrlashganini ko'rsatadiki, buni o'z vaqtida Ye.E. Bertels ham ta'kidlab o'tgan edi [7].

Ye.E. Bertelsning shogirdi E. Rustamov o'zining Ulug'bek davridagi turkiy adabiyot tadqiqiga bag'ishlangan "XV asr birinchi yarmida o'zbek she'riyati" monografiyasida shunday yozadi: "Ulug'bek davrida Samarqandda xuddi Hirotdagi kabi qadimgi turkiy adabiyot yodgorliklarini o'rganishga qiziqish kuchaygan. 1444 yilda Samarqandda Arslonxoja tarxon xoxishiga ko'ra Adib Ahmad Yugnakiyning mashxur dostoni "Hibat ul-xaqoyiq" uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Dostoy matniga ilova tarzida Adib Axmad va uning asariga bag'ishlangan ikkita turkiy she'r keltirilgan. Ulardan birining muallifi amir Sayfiddin Barlos, ikkinchisiniki Arslonxoja tarxondir. Bu

she'rlar mualliflarning qadimgi turkiy adabiy yodgorliklarga bo'lgan katga muhabbatlaridan dalolat beradi" [8].

Bundan ko'rinadiki, o'sha davrda faqat Ulug'bekning o'zigina emas, balki amirlari ham ilmu fan va adabiyotga homiylik qilishgan. Shoir Sakkokiyning "Devon"ida Ulug'bekga bag'ishlangan qasidalar qatorida Arslonxoja tarxonga bag'ishlangan qasidalar ham borligi bejiz emas. Ulug'bek madhidagi qasidasida Sakkokiy o'zining turkiy tilda ijod qilishidan faxrlanib, quyidagi baytni bitgan:

*Falak yillar kerak sayr etsayu, keltursa ilkiga,
Meningdek shoiri turkiyu, seningdek shohi dononi.*

Mirzo Ulug'bek davrida ijtimoiy fanlar rivojiga ham katta e'tibor berilgan. Bu davrda turkiy tilning adabiy va ilmiy til sifatidagi mavkei tobora oshib borgan. Adabiyotshunoslikka oid qimmatli asar, xijriy 840 (milodiy 1436-1437) yilda turkiy tilda yozilgan "Funun ul-balog'a" ("Yetuklik ilmlari") muallifi Shayx Axmad ibn Xudoydod Taroziy o'z kitobini Mirzo Ulug'bekga bag'ishlab, muqaddimada shunday yozadi:

"Ul saltanat daryosining gavhari va ma'dilat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining moqi, qayosat mamlakatining shoxi, shahan-shohi a'zam, shahriyori a'lam, soqibus sayf va-l qalam, farmon-dehi turku arabu ajam, mag'isiddin vad davron amir Ulug'bek Ko'ragon" [9].

Asarni nashrga tayyorlagan A.Hayitmetovning yozishicha: "Ilgari o'tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo'yicha kitob yozganlarida ko'pincha bir - yo she'r turlari yoki vazn, yoki badiiy san'at masalasiga to'xtalganlar yoki biror she'riy janr xususiyatlarini yoritib berganlar. Shayx Axmad esa bu sohada mukammal bir qo'llanma yaratishni, o'z risolasida nazariya masalalarining barchasini yoritib, taxlil qilib berishni niyat qiladi, toki uni o'qigan kishilar nazariyadan mumkin qadar to'la ma'lumot va foyda olsinlar... Bu uning o'zbek adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shgan katta xissasi edi".

Ahmad Taroziy o'z davrining tanikli shoiri ham bo'lgan. Bobur aruzga bag'ishlangan "Muxtasar" asarida uning ijodidan ikki bayt misol keltirgan bo'lib, baytlardan biri odatdan tashqari cho'ziq va o'ziga xos:

Ko'rdi ko'zum sahar chaman ichida bir parivash yekim, yuzi gul, Tani

suman, zulfi binafsha, qaddi sarvi sihiy erdi, lab shakar,

Lola o'zidin o'tanib, da'vosidin suman tonib, erdi binafsha bosh solib, sarvu chinoru koj (igna bargli daraxt) ham bo'ldi qaddin ko'rub digar [10].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XV asr birinchi yarmida Samarqand va Movarounnahrda nafaqat tabiiy fanlar va me'morlik san'ati, balki badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikning gullab-yashnashida ham Mirzo Ulug'bekning homiy sifatida qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi katta ahamiyatga ega bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois // Mukammal asarlar to'plami. 13-tom. – Toshkent, 1997.
2. Davlatshox Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro / Forsiydan Muhammad Rafe' Rojiiy tarjimasini. O'zR FA ShI institutining 7016-raqamli qo'lyozmasi.
3. Axmedov B. Davlatshox Samarqandiy. –Toshkent, 1967.
4. Davlatshox Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro (fors tilida). –Texron, 1338 xijriy-shamsiy yil.
5. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. –Texron, 1957.
6. Lutfiy. Sensan sevarim. –Toshkent, 1987.
7. Бертельс Е.Э. Навои. –Москва; –Ленинград, 1948.
8. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва, 1963.
9. O'zbek tili va adabiyoti, 2003. 3-son.
10. Zaxiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. –Toshkent, 1971. 69-bet.
11. Ibragimova, D. I. TERMINOLOGY OF HISTORICAL PROSE AND THE GENRE ISSUE IN UZBEK LITERARY STUDIES.
12. IBRAGIMOVA, D. ISAJON SULTONNING "ROBIYA BALXIY" QISSASIDA TARIXGA YONDASHUV TAMOIYILLARI. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA, 78.
13. XUJAYEV, M. (2025). ОТНОШЕНИЕ МИРЗО УЛУГБЕКА К ФИЛОСОФИИ. «АКТА NUUZ», 1(1.4. 1), 223-225.
14. Хужаев, М. И. (2020). Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online, 5(8).
15. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
16. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.

17. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
18. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.